

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XORIJIIY FILOLOGIYA

til • adabiyot • ta’lim

ilmiy – uslubiy jurnal

Samarqand

2 (63)/ 2017

Ministry of Higher and Secondary Special
Education of the Republic of Uzbekistan

SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

FOREIGN PHILOLOGY

Language • Literature • Education

Scientific-methodology journal

Samarkand



**SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI SHOIRLARI IJODIDA JONLANTIRISH VA
TASHXIS SAN'ATI
(X-XII asrlar fors-tojik shoirlari ijodiyoti misolida)**

*Qayumov Nodir,
Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: tashxis, jonlantirish, san'at, shakl, mazmun, poeziya, qasida, musammat, poetika.

Jonlantirish va tashxis san'ati dunyo xalqlari, mumtoz va yangi adabiyotning poetikasida eng ko'p murojaat etilgan badiiy san'atlardan hisoblanadi. Mazkur maqolada jahon va fors-tojik adabiyotshunoslari va mumtoz adabiyotshunoslik vakillarining ilmiy-nazariy qarashlari asosida mazkur san'atning tarixiy negizlari, uning poeziyada tutgan salmoqli o'rni, poetik funksiyasi, boshqa badiiy san'atlardan farqli jihatlari, lafziy va ma'naviy san'atlar bilan tipologik xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Adabiyot nazariyasi va boshqa ilmiy risolalarda jonlantirish va tashxis san'ati to'g'risida olimlarning bir-biridan farq qiladigan fikr va aqidalari bayon etilgan. Mazkur tadqiqotlarda tashxis va jonlantirish san'ati badiiy adabiyotda biron-bir jonsiz, mavhum buyum va unsurga jon berish, tabiatdagi voqeа va hodisalarga ruh berib ularni inson qiyofasiga kirgizish, turli hayvon va jonzotlarga inson tili va harakatini berish orqali yuksak badiiy obrazlarni yaratish tarzida namoyon bo'ladi. Shoир jonlantirish va tashxis san'ati vositasida jonsiz tabiat unsurlarini jonlantirib, ularga inson siyomosi va harakatlarini, uning xulqu atvorini, xarkterini tatbiq etadi. Mumtoz adabiyotda jonlantirish va tashxis san'ati yordamida ko'plab o'ziga xos go'zal va badiiy obrazlar vujudga kelgan. Jumladan, sarv daraxtining harakatlanishi, lola gulining tabassum etishi, bulutning g'amgin shaxs kabi yig'lashi, yulduzning kiprik qoqishi, kelinchak libosida bahorning kirib kelishi jonlantirish va tashxis san'atining badiiy imkoniyatlar hisobidan yaratilgan. Shoир tashxis va jonlantirish san'ati orqali insoniyat tasavvur qila olmaydigan noma'lum va noayon narsalarni ham g'oyatda go'zal va aniq qilib tasvirlay

oladi, ularga jon ato etib o'zining ichki xis-tuyg'u va hissiyotlarini mazkur obrazlar orqali bayon etadi. Masalan: aql va bilim,adolat, zulmu istibdod va boshqa ko'zga ko'rinmaydigan jismlar-mafhumlar-tushunchalar jonlantirish orqali ma'lum bir obrazga aylanadi va insoniy fazilatlar tufayli harakatlanadi. Adolatning tilishi, yaxshilikning jasur pahlavon qiyofasiga kirishi, Ahuramazda (Yaxshilik) kuchlarining Ahriman (Yomonlik) kuchlari bilan jang qilishi, zulm va sitamning o'lishi, fitnaning uxlagan shaxsdek xomush bo'lishi, fikrning tug'ilishi va aqlning hukmronlik qilishi tashxis va jonlantirish san'atining badiiy imkoniyatlaridan darak beradi. Fors-tojik mumtoz shoirlari jonlantirish va tashxis san'atidan badiiy so'zning qimmatini oshirishda, noan'anaviy obrazlar yaratishda foydalanganlar [4:102].

Mumtoz adabiyotning X-XII asrlarda shakl, janr, mavzu, badiiy obrazlar hisobidan rivojlanishi barobarida adabiyotda badiiy san'atlarning o'rni yuksalib bordi. Shoirlar o'zlarining she'rida badiiy so'z quvvatini namoyon qilish, bayon etilayotgan mavzuni chiroli va ko'rkm qilib tasvirlashda badiiy san'atlardan foydalanganlar. Mazkur davrning she'riyati va tasvirlar uslubiyotida badiiy so'z namunalaridan, asosan, tashbih, tashxis, istiora, mubolag'a, savol-javob, tazod, tarse', majoz va kinoya va boshqa so'z san'atlarini uchratamiz.

Jonlantirish va tashxis san'ati X-XII asrlar fors-tojik mumtoz shoirlari ijodida, asosan, tabiat manzaralarini tasvirlash jarayonida, sharob va mayga bag'ishlab bitilgan qasidalarda va boshqa tabiiy hodisalarni tasvirlashda ishlatilgan. Mazkur davr shoirlari ijodiyotida tabiat manzaralarini



tasvirlash va tavsiflash katta ahamiyatga molik bo‘lib, shoirlar badiiy san’at namunalarida, xususan, tashxis san’ati orqali tabiatning manzaralari: mevalarning shirinligi va navlari, bog‘ va gulzorlarning ko‘rki-chiroyi haqida ko‘plab obraz va tasvirlarni yaratishgan. Tashxis va jlonlantirish san’ati X-XII asrlar fors-tojik mumtoz shoirlari ijodida asosan ikki; batafsil va muxtasar shakllarda namoyon bo‘ladi. Jlonlantirish va tashxis san’atining batafsil yoki to‘liq shaklini Odamushshuar Rudakiy Samarcandiyning “Modari may” -“Mayning onasi” qasidasida, Manuchehriy Domg‘oniyning musammatlarida, Bashshori Marvaziy va Farruxiy Siistoniyning qasidalarida ko‘rishimiz mumkin. Jlonlantirish va tashxis san’atining muxtasar shakli mazkur davr shoirlarining turli bayt, ruboilyar va qasida-musammatlarning alohida qismlarida ko‘zga tashlanadi.

X-XII asrlar fors-tojik mumtoz shoirlari ijodida jlonlantirish va tashxis san’atidan mohirlik bilan foydalangan va mazkur san’atning badiiy imkoniyatlari orqali chiroyli va notakror obrazlar yaratgan shoirlardan biri bu Abo‘abdulloh Ja’far binni Muhammad Rudakiy Samarcandiydir. Rudakiy she’riyatida jlonlantirish va tashxis san’ati turli shakllarda: gohida tamsilning ichida va gohida mustaqil shaklda yuksak badiiyat va did bilan bayon etiladi. Masalan: u o‘zining “Madhi Buxoro” (Buxoro madhi) qasidasida tashbih san’ati qatorida jlonlantirish san’atining muxtasar shaklidan mohirlik bilan foydalanadi:

*Mir moh astu Buxoro osmon,
Moh so‘i osmon oyad hame.
Mir sarv astu Buxoro bo‘ston,
Sarv so‘i bo‘ston oyad hame. [5:15]*

*Mazmuni: Mir oydur Buxoro osmon.
Oy osmon ko‘yida kelgusidur, Mir sarvdur
Buxoro bo‘ston, Sarv bo‘ston ko‘yida
kelgusidur.*

Yuqoridagi misralar asosan tashbih san’atidan tarkib topgan, osmondagi Oyning maqsad sari harakatlanishi va sarvning bo‘ston yoniga kelishi tashxis san’atining muxtasar shaklidan tarkib topgan. Oy

birinchi misrada amirga tashbih etiladi, ikkinchi misrada jonlantiriladi va maqsad sari harakat qilib osmon uzra keladi. Uchinchi misrada ham shoir amirni tavsiflaydi va uni go‘zal va baland sarv daraxtiga o‘xshatadi. To‘rtinchi misrada shoirning tasvir ob’ekti sarv daraxti jlonlantirilib harakatga keltiriladi va u bog‘u bo‘ston tomon tashrif buyuradi.

Rudakiy Samarcandiy ijodida may (sharob)ning tayyorlanish jarayoni «Modari may» qasidasida tashxis san’atining mufassal turi vositasida yuksak badiiy obrazlar vositasida ifodalangan. Rudakiy birinchi marotaba arab xalifaligining istilosidan keyin fors-tojik mumtoz adabiyoti tarixida mayning tayyorlanish jarayonini kiritib, uni badiiy did bilan tasvirlaydi. Rudakiyning “Modari may” qasidasi yaratilganidan keyin undan keyingi davr shoirlari Bashshori Marvaziy va G‘aznaviylar adabiy muhitining zabardast namoyandas Manuchehriy Domg‘oniy may tayyorlash jarayoni an’analarni badiiy adabiyotda davom ettirib, o‘z qasida va musammatlarida tashxis va jlonlantirish san’atidan mohirlik bilan foydalanadilar. Fors-tojik adabiyotining mohir tadqiqotchilaridan biri Asrорxon Boboyevning bu borada bildirgan fikr-mulohazalariri mavzuni yanada yaxshiroq yoritadi: “Shuni aytib o‘tish kerakki, may tayyorlash qadimiy hunarlardan bo‘lib, bu borada maxsus hunarmandlar xizmat qilishgan. Badiiy usul vositasida adabiyotda may tayyorlash jarayonini tasvirlashni Rudakiy o‘zining “Modari may” qasidasi bilan Manuchehriydan oldin boshlab bergen edi [3:98].

Endi “Modari may” qasidasining tashbib qismida tashxis va jlonlantirish san’atining o‘rni va ahmiyatini nazardan o‘tkazamiz. Rudakiyning “Modari may” qasidasida tashxis sa’nati mufassal shakli vositasida may tayyorlash jarayoni va inson taqdiri fojeasini tasvirlaydi. Shoir tashxis san’ati vositasida «May onasi» - (uzum) va «uning bolasi» (uzumning donalari)-dan may tayyorlash jarayonini inson hayotida yuz beradigan fojia tariqasida ta’sirchan tasvirlaydi. “Ona va bola” (onaning bolasidan ajralishi) fojiasini shoir mazmunli, sehrli va



mohirlik bilan she'rga soladi va asl mavzu uzum shirasini tortib olish, uni xumga solib tayyorlash jarayonini o'quvchi ko'zidan pinhon qilib, ona va bolaning ayanchli taqdiriga diqqatni qaratadi. Shunday qilib, asl mavzu ko'zdan yiroqda qolib faqat uning obrazi namoyon bo'ladi. Insonning ayanchli fojiasi shunday mohirlik bilan tasvirlanadiki unda o'quvchi tasvir ob'yektini unutib inson taqdirining mahzun lahzalarini yodga oladi va g'amga cho'madi. Masalan :

*Modari mayro bikard boyad qurbon,
Bachchai o'ro giriftu kard ba zindon.
Bachchai o'ro az-o' girift nodoni,
To-sh nako 'bi naxustu z-o' nakashi jon [5:25].*

Tarjimasi: May onasini qurbon aylamak lozim, uning bolasini qo'lidan olib hibs qilmoq kerak. Onaning bolasini oldi nodonlik, to uni urib o'ldirmas ekan u jon uzmagaydir.

Yuqoridagi baytlarda zolim bog'bon uzum donalarini mehribon ona bag'ridan uzib, ularni xumga (zindon) tashlaydi va ularni nobud qilishga harakat qiladi. Keyingi baytlarda shoir uzum bolasining kamol topish jarayoni, uni zindonga tushish va shahid bo'lish voqealarini yuksak mahorat va badiiyat ila jlonlantirish san'ati asosida tasvirlaydi:

*Chuz ki naboshad halol bikardan,
Bachchai ko'chak zi shiri modari piston.*

*To naxo'rad shir haft moh ba tamomi,
Az sari urdibihisht to buni obon.
On gah shoyad zi ro'i dimu rahi dod,
Bachcha ba zindoni tangu modar – qurbon.*

*Chun bisupori ba habs bachchai o'ro,
Haft shaboro 'z xira monadu hayron.
Boz chu oyad ba xushu hol bubinad,
Jo'sh barorad, binolad az dili so'zon [5:25].*

Tarjimasi: Bolaning ona sutiga to'ymasdan ayirish gunohdir. Bola yetti oy davomida oziqlanib, so'ng uni qamoqqa solish adolatdan bo'ladi May onasini qurbon aylamak lozim, uning bolasini qo'lidan olib hibs qilmoq kerak. Bolani onadan ayirib,

zindonga solgandan keyin, u yetti kun davomida lolu xayron, goh o'zidan ketib, goh xushiga kelib taqdirdning zarbasidan noliydi. Zindonning yettichi oyida bola mast nortuyaga o'xshab og'zidan kafk chiqarib, shaytoniy xislatlarni vujudga keltiradi.

Nazariy poetikada voqeа yoki badiiy obrazni biron badiiy obraz yo tasvir bilan qiyosiy tasvirlanayotgan vaqtda qiyosiy tasvirlanayotgan obraz yorqinroq, va yuksak badiiy ahamiyatga molik bo'lumog'i lozim. Nazariy poetikaning ushbu talaboti tufayli, "ona va bola" obrazi asl tasvir-sharob tayyorlash jarayonidan ustunlikka erishadi, hatto mazkur jarayonni o'quvchining yodidan chiqarib ta'sirchan tasvirlaydi. Keyingi baytlarda uzum bolasini «hibs»-ga olish, undan iste'mol qilish jarayonlari mohirlik bilan tasvir etilgan. Rudakiyning mazkur qasidasida dehqon yoki bog'bon atamalari «xasis erkak» ta'biri tarzida ishlataligan. Mazkur masnaviyda jlonlantirish san'atining boshqa shu turdagи san'atlardan farqi ham shunda. Shuningdek, mazmun shoirning tilidan naql qilinib uzum yo uning juvonmarg farzandi o'z tilidan gapirmaydi. Rudakiy «Modari may» qasidasining nasib qismida tashxis va jlonlantirish san'ati qatorida tashbih san'atidan ustuvorlik bilan foydalaniib, jarayonni badiiy jihatdan yuksakoq ifodalaydi. She'rda keltirgan tashbihlardan "mast nortuya", "qizil yoqut", "qizil gul", "mushk", "quyosh chashmasi" va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. Rudakiy o'zining 21 baytlik she'rida uzumning pishishi, uning uzib olinishidan tortib undan may tayyorlash jarayoni sifatlarini badiiy san'atlar, xususan, tashxis va jlonlantirish san'ati asosida tasvirlab, ajoyib manzaralarga boy badiiy san'at namunasini ijod etgan.

X-XII asrlar shoirlari ijodida may tayyorlash jarayoni va uni tavsiflash ajoyib an'anaga aylangan. Ustoz Rudakiyning "Modari may" qasidasidan keyin somoniylar davri adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan Bashshori Marvaziy may tayyorlash jarayoniga e'tibor qaratgan holda, tashxis va jlonlantirish san'ati asosida noan'anaviy badiiy timsollar yaratishga



muvaffaq bo‘lgan. Bashshori Marvaziy qasidasining qisqacha mazmuni quyidagicha: bir kuni shoir boqqa borib uzum ishkomlarida “qorachadan kelgan yashil sochli” kelinchaklar, ya’ni uzum sinchalarini ko‘rib zavqlanadi. Shoiring nazarida uzum sinchalarini Zang (qora) shohning qizlari kabi ko‘rinadi va ularning boshlari yashil ro‘mol bilan o‘ralgan. Ular har joy har joyda muallaq turib onalarini emadilar. Shoiring havas ila ularning har biriga qo‘l tekkizib zavqlanadi, ammo uzoqdan bog‘bon shoirlari “kelinchaklar” uzum navdalari bilan birga ko‘rib oru nomusi qaynab g‘azabga minadi. Bog‘bon shamshirni qo‘liga olib, kelinchaklarni latif bo‘ynidan tutib tomirlarini kesa boshlaydi. Bog‘bon jahl bilan kelinlarning yashil liboslarini yirtib, ularni yerga qarab yotqizadi. Keyin ularni oyog‘i bilan qattiq tepib, jonlarini sug‘urib olishni boshlaydi, shunda kelinlarning terilari shilinib zolim bog‘bon qo‘lida jon bera boshlaydilar. Tepib-tepib urishlardan so‘ng joni chiqqan “kelinlar” tanalaridan qon sizib chiqib, uzumzor o‘rtasida kovlangan hovuzni qon bilan to‘ldiradilar. Bog‘bon yana o‘sha jahl va g‘azab bilan qatl etilgan kelinchaklarning qonlarini katta tosh orasiga olib borib to‘kadi, o‘sha tosh ustiga muhr qo‘yib mahkamlaydi va besh oy davomida ulardan biron marotaba ham xabar olmaydi. Shu bilan tabiatda bahor ayyomi kelib, bog‘bon uydan may va gulob isini tuyib, muhrlagan tosh va undagi ichimlik yodiga tushib, toshdan borib muhrni oladi.

On xo‘sae bin fitoda bar o‘ barghoi sabz,

Ham didanash xujastayu ham xo‘rdanash

Ro‘ze shudam ba raz, ba nazari du chashmi man

Xira shud az ajoibi alvon, ki bingarand.

Didam siyohro ‘yu aro‘soni sabzmo‘y,

K-az g‘am dilam ba didani eshon biyoramid.

*Gufi, ki shohi Zang yake sabz chodare
Bar duxtaroni xesh ba amdan
bigustarid. [2: 216-217]*

Bashshori Marvaziy shu yo‘l bilan may-sharob tayyorlash jarayonini yuksak badiiyat bilan bayon etib, oddiy ishlab chiqarish holatini ajoyib syujetga aylantiradi.

Tashxis va jlonlantirish san’ati X-XI asrlar boshqa bir qator shoirlari ijodiyotida ham ko‘p uchraydi. Mazkur davr shoirlari ijodiyotida tashxis va jlonlantirish san’ati asosan tabiat manzaralarini tasvirlash jarayonida foydalaniadi. Masalan, Farruxiy Siostoniyning bir g‘azalida shoiring tashxis va jlonlantirish san’ati vositasida fazoviy jism-Oyning insonga xos xususiyatlarini ifodalab, uni Quyoshga oshiqligini tarzida tasvirlaydi:

*Z-oftob judo bud moh chandin shab,
Hamedavid ba gardun bar oftob talab.
Hamida gasht zi hijronu zard gashta zi
g‘am,*

Nizor gashta zi ishqu gudoxta zi taab [6:75.]

Yuqoridagi baytlarda Oyning Quyoshga oshiqligini bo‘lib, sevib qolishi, ma’shuqaning ishq hijronida oshiqning g‘amu g‘ussalarga mutbalo bo‘lish voqeasi bayon etiladi. Oy o‘z ma’shuqasi ishqida yonishi natijasida, ko‘plab uqubatlargaga duchor bo‘ladi va rangi za‘faron bo‘lib, bemor odamga aylanadi. Mazkur baytlarda shoiring tashxis va jlonlantirish san’ati vositasida tabiiy hodisa sanalmish Oyning utilishi va bir necha kun insonlar nazaridan chetda qolishini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. G‘azalda Oy o‘z ma’shuqasi vasliga etib shodu xurram bo‘lib, ishq sururidan mast bo‘lishi ham tasvirlangan. Buning natijasida Oyning o‘z ma’shuqasi Quyosh diydoriga etishganidan boshqa fazoviy jismlar, ya’ni yulduzlar ogoh bo‘lib, Quyosh va Oy xursandchiligidagi qo‘shilib, ularga hamrohlik qiladilar:

*Chu oftobtalab nazdi oftob rasid,
Nishot kardu tarab kardu bud joi tarab.
Furo‘ nishast bar oftobi ravshan kard
Ba ro‘i ravshani o‘ chashmi tirai chu
shab.*

*Chu mohi dilshuda ba oftobi ro‘y
Guzor kard bad-in dar hame du ro‘zu
du shab [6:75].*



Farruxiy Siistoniy o‘zining yuqoridagi g‘azalida jonlantirish san’ati asosida Quyosh, Oy va bir qator osmon jismlari – yulduzlarni jonlantirib, ularga insoniy xususiyatlar va sifatlarni berib, Oy misolida ishq yo‘lida g‘aribu notavon oshiq timsolini yaratadi. G‘azalda Oy o‘z mashuqasi diydorini ko‘rolmay xasta va ozor chekkan inson qiyofasida namoyon bo‘ladi. Mashuqasi Quyosh vasliga etishganidan keyin Oy ikki kunu ikki tun uning didoriga to‘ymay u bilan bazmu jamshid qilib, atrofida parvona bo‘lib, visol oqshomlaridan bahramand bo‘ladi. Osmon yulduzları Oyning bu ishidan ogoh bo‘ladi va Oy buning natijasida hijolat chekadi. Atoqli shoir Farruxiy Siistoniy g‘azalda Oyning tutilish holati voqeasini bayon etish jarayonida mufassal tashxis turidan foydalanadi. Shoir tabiatning oddiy bir hodisasini lirik timsollar bilan ifodalab, o‘quvchi qalbini o‘zining poetik mahorati bilan to‘lqinlantiradi.

X-XI asrlarda fors-tojik mumtoz adabiyotining atoqli shoirlari ijodiyotida

tabiatning go‘zal manzaralari tasviri, turli mevalar, Mehrjon, Navro‘z, Sada singari xalq bayramlari tavsifi katta ahamiyatga ega edi. Shoirlar o‘zlarining turli xalq bayramlari va tabiat unsurlari haqidagi she’rlarini sahli umutlane’, ya’ni Xuroson uslubida turli badiiy san’atlar ishtirokida mohirlik bilan bayon etganlar. Shoirlarning tabiat manzaralari haqidagi she’rlarida ko‘pincha so‘z san’atlaridan tashxis, tavsif, mubolag‘a, istiora va tashbihdan foydalanib kelganlar. Xususan, mazkur davr shoirlari ijodida turli hayvonlar qushlar, mevalar, tabiat manzaralari va peyzajlarini tasvirlash jarayonida tashxis va jonlantirish san’atining o‘rnii nihoyatda beqiyosdir. Buning misolini biz somoniylar va g‘aznaviylar adabiy muhitining atoqli shoirlari Rudakiy Samarqandiy, Bashshori Marvaziy, Farruxiy Siistoniy, Manuchehriy Domg‘oniy va Unsuriy ijod namunalarida bevosita ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Ash’ori hamasroni Ro‘daki. - Dushanbe: Tojikiston davlat nashriyoti 1958, 512 bet.
2. Axtaroni adab. 2 jild. Dushanbe: Adib, 2007, 475 bet.
3. Boboev A . Mavzo‘ va sabki ash’ori Manuchehriy.–Dushanbe: Donish, 1990, 128 bet.
4. Zehni T. San’ati suxan. – Dushanbe: Adib, 2007, 396 bet.
5. Rudaki. Osori Rudaki. – Dushanbe: Tojikiston davlat nashriyoti 1958, 548 bet.
6. Sabaqi Rudaki. –Dushanbe: Irfon, 1984, 304 bet.

Каюмов Н. Одушевление и анимация искусства в творчестве поэтов классиков литературы Востока (на основе творчества персидских и таджикских поэтов X-XII веков). Искусство одушевления и восстановления является одной из форм искусства. Возникновение видов первобытного искусства, современное и примитивное сознание литераторов не являются полными. В данной статье рассматривается одушевление и история искусства анимации, теоретические вопросы, в творчестве персидско-таджикских поэтов X-XII веков.

Kayumov N. Animation and animation of art in the works of Eastern poets of the 10th-12th centuries (in base of poems of Persian and Tajik poets). The art of animating and restoring is one of the forms of art. The emergence of species of primitive art, the modern and primitive consciousness of writers are not complete. In this article, animation and the history of the art of animation, theoretical issues, in the creative work of the Persian Tajik poets of the 10th-12th centuries are considered.
